# XALQ DEPUTATLARI SARDOBA TUMANI KENGASHI QARORI

2023 - yil 22 - fevral VI-59-39-9-127-K/23 Sardoba tuman hokimligi

## Tumandagi nomsiz 1 ta ziyoratgoh va 5 ta qabristonlarga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktabrdagi “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, Sirdaryo viloyati hokimligi huzuridagi geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2022-yil 12-sentabrdagi 03/17-36-sonli murojaatnomasi va unda qayd etilgan Sirdaryo viloyati Sardoba tumanidagi 6 ta geografik ob’ekt (1 ta ziyoratgoh, 5 ta qabriston)ni nomlash bo‘yicha taklifi ko‘rib chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 4-oktabrdagi №00723-sonli bayonnomasi, 2022-yil 4 oktabrdagi Geografik ob’ektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi №00723-sonli ekspert xulosasi va 5-oktabrdagi 08-08659-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Sirdaryo viloyati hokimligi huzuridagi geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2022-yil 12-sentabrdagi 03/17-36-sonli murojaatnomasi va unda qayd etilgan Sirdaryo viloyati Sardoba tumanidagi 6 ta geografik ob’ekt (1 ta ziyoratgoh, 5 ta qabriston)ni nomlash bo‘yicha taklifi ko‘rib chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 4-oktabrdagi №00723-sonli bayonnomasi, 2022-yil 4-oktabrdagi Geografik ob’ektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi №00723-sonli ekspert xulosasi va 2022-yil 5-oktabrdagi 08-08659-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik ob’ektlarni nomlash masalalari bo‘yicha 6 ta geografik ob’ekt (1 ta ziyoratgoh, 5 ta qabriston)ni nomlash bo‘yicha viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Norbekov), tuman Statistika bo‘limi (J.Xojiboyev), Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr palatasi (A.Ismailov), tuman Qurilish bo‘limi (J.Qaynarov)

davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda mazkur qarorga muvofiq tumanidagi nomlangan ziyoratgoh va qabristonlar nomlarini belgilangan tartibda tuman statistika hisobotlarida aks ettirish va ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish choralarini ko‘rsinlar.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Mo‘minov)ga:

- 10 kun muddatda hududlardagi nomlangan ziyoratgoh va qabristonlarga nomlangan ob’ektlarga zamonaviy ko‘rinishdagi (lotin yozuvida homiy tashkilotlar yordamida) peshlavhalar yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etish hamda yo‘l belgilariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

5. Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr palatasi tuman Kadastr bo‘limi (A.Ismailov), tuman Qurilish bo‘limi (J.Qaynarov)lar birgalikda nomlangan ziyoratgoh va qabristonlariga belgilangan tartibda zamonaviy dizayn asosidagi peshlavhalar va ko‘rsatkich belgilar o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (lavozim bo‘yicha) nomlari tasdiqlangan ob’ektlarni belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining davlat reestri bazasiga kiritilishini ta’minlasin.

7. Tuman Axborot xizmati rahbari (U.Jurayev), “Sharafli yo‘l” gazetasi tahririyati (S.Namozov)ga ushbu qaror mazmun mohiyatini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek tuman hokimligi veb-saytida orqali keng yoritilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

8. Xalq deputatlari tuman Kengashiga tuman Adliya bo‘limi tomonidan 2023-yil 4-yanvarda kiritilgan 1-20/17-7/4–son taqdimnomasini inobatga olib, 2022-yil 30-dekabrdagi “Sardoba tumanidagi nomsiz 1 ta ziyoratgoh va 5 ta qabristonl arga nom berish to‘g‘risida”gi VI-58-247-9-127-K/22-sonli qarori normativ tusdagi qaror ekanligi va qonunchilikda belgilangan tartibda regulation.uz tizimiga muhokama portaliga joylashtirilmaganligi sababli bekor qilinsin.

9. Ushbu qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Yo‘ldoshevga, tuman hokimining o‘rinbosarlari B.Tursunmurodov, Z.Musurmonkulovga, tuman hokimining maslahatchisi (lavozim bo‘yicha)ga hamda qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi B. Bekmurotovlar zimmalariga yuklansin.

**Kengash raisi** **A.Mirzayev**

Xalq deputatlari Sardoba tuman
Kengashining
2023 yil 22 fevraldagi
VI-59-39-9-127-K/23-son qaroriga
1-ilova

**Geografik ob’ektlarni nomlash masalalari bo‘yicha 6 ta geografik ob’ekt (1 ta ziyoratgoh va 5 ta qabriston)ni nomlash bo‘yicha viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif**

| № | Mahalla nomi | Geografik ob’ektlarni bog‘lanishi | Geografik ob’ektlarni amaldagi nomi | Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif | Ekspert komissiyasining xulosasi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Ziyoratgoh | “Fayzliobod” | Nomsiz | Yog‘ochli Sardoba | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |
| 2 | Qabriston | “Bo‘ston” MFY | Nomsiz (Qoraqamish qabristoni) | Zomin, Halovat, Birodarlik | Takliflardan **Birodarlik** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |
| 3 | Qabriston | Paxtaobod shaharchasi | Nomsiz (Paxtaobod qabristoni) | Paxtaobod, Mo‘minlar, Musofirobod | Takliflardan **Mo‘minlar** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |
| 4 | Qabriston | “Qo‘rg‘ontepa” (“Al-Xorazmiy” MFYning yangi nomi) | Nomsiz (Qo‘rg‘ontepa qabristoni) | Qo‘rg‘ontepa, Fayzobod, Hamjihatlik | Takliflardan **Qo‘rg‘ontepa** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |
| 5 | Qabriston | “Birlashgan” MFY | Nomsiz (Yangimozor qabristoni) | Birlashgan, Boqiy xotira, Ajdodlar | Takliflardan **Birlashgan** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |
| 6 | Qabriston | “Birlik” MFY | Nomsiz (Gulzor qabristoni) | Birlik, Saxovat, Abadiyat | Takliflardan **Abadiyat** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |